

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI MARKETING
INNOVATSIYA
TARAQIYOT
SAVDO
BIZNES
WATLUBANDIY
TARBIYA

№7-SON

2025-YIL, IYUL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621





Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 31 IYUL, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echlamlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoiraa Azimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabel Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 395 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-iyulda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ СРЕДСТВ	6
Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
KOMPANIYALAR EKOMARKETING STRATEGIYASIDA “YASHIL” BRENDING TENDENSIYALARI	13
Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo o’g’li	
МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД К РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ УСТОЙЧИВОГО УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ.....	21
Ренкер Клеменс, Багиев Георгий Леонидович, Икрамов Мурат Акрамович	
XORAZM VILOYATIDA SANOATNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING DINAMIKASI TAHLILI	29
Ibragimov Jaxongir Baxodirovich	
O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	36
Astanov Sherzod Rustamovich	
HALOL STANDARTLARINING MAZMUN-MOHİYATI, ASOSIY TALABLARI VA IJTIMOİY-IQTISODIY TUSHUNCHALARI	45
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
QURITILGAN MEVALAR EKSPORTIDA MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	56
Yunusov Baxodir Marisovich	
KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK MARKETING YONDSHAUVLARI	64
Xidirov Sherzod Olimovich	
BIZNES JARAYONLARNING LOGISTIKA AUTSORSINGI	70
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YASHIL MOLIYALASHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI	78
Oripov Ilhom Abdullayevich	
NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH	90
Inamov Farhodjon Ikrom o’g’li	
“YASHIL” SANOAT SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	97
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TIJORAT BANKLARI FAKTORING XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	108
Jalilov Azizbek Baxodir o’g’li	
MINTAQAVIY IJTIMOİY-IQTISODIY TIZIMDA SAMARADORLIK VA SIFATNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI.....	117
Jumanov Sherzod Norboyevich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MAQSADLI AUDITORIYANI ANIQLASHDA SUNIY INTELLEKT VOSITALARI VA ULARDA MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH ..	126
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
ELEKTRON TIJORATDA TESKARI LOGISTIKANING INNOVATSION MODELLARINI QO‘LLASH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI	134
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o’g’li	

MINTAQADA QURILISH ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	150
Jumanov Sherzod Norboyevich	
FROM PARTNERSHIP TO STRATEGIC ALLIANCE: MAPPING FUTURE COLLABORATION BETWEEN INDIA AND UZBEKISTAN	159
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	167
Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	176
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
O'ZBEKISTON AGROSANOAT ZANJIRLARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMLARINI JORIY ETISHGA TASHQI MUHIT OMILLARI TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	180
Djumayev Asror Almamatovich	
TRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONSEPTSIYASI	190
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna	
SOG'LIQNI SAQLASH TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI.....	198
Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF LOGISTICS SERVICES IN FREE ECONOMIC ZONES. STRATEGIC CONCEPT ON THE EXAMPLE OF JIZZAK FEZ.....	204
Mukhiddinov Muminjon Shavkiddin ugli	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISHNING TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI.....	213
Nazarova Fotima Xakimovna, Jonibekov Jasurbek Jonibekovich	
MAKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOL TALABI NAZARIYASI VA UNING MARKETING TADQIQOTLARIDA QO'LLANILISHI	219
Rustamov Narzillo Istamovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA MOLIYAVIY TAHDIDLARNI BOSHQARISHDA BILIMLAR DARAJASINING ROLI.....	227
Sadibaqosov Suxrob Toshpo'lot o'g'li	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION OMILLARNING TA'SIRINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	235
Sapayeva Fazilat Norbayevna	
MODALAR BIZNESIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	241
Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi, Yuldasheva Dilorom Shaxzod qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI	248
Tuychiyev Alisher Jurayevich, Kurbanbayeva Zuxra Abduraxmon qizi	
СТИМУЛИРОВАНИЕ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	257
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	266
Самединов Тимур	

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BIG DATA TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABA FIKRLARINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH.....	279
Akbarov Nodir Gafurovich	
BANK XIZMATLARI MARKETINGIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	287
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH INNOVATSION YONDASHUVLAR VA INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV METODOLOGIYASI.....	295
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi	
KORXONALARDA RAQOBAT RAZVEDKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH	304
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
ZIYORAT TURIZMI BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	311
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MODDIY OQIMNI BOSHQARISHDA LOGISTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-TASHKILY MEXANIZMI.....	315
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	322
Gozieva Mokhira Rustamovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH.....	330
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
BOJXONA TIZIMIDA TRANSPORT LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	335
Kucharov Abror Sabirjanovich, Alijanova Komila Toxir kizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BYUDJETLASHTIRISHDAN FOYDALANGAN HOLDA BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	344
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETINGDA SUN'IY INTELLEKT.....	352
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYASI AHAMIYATI.....	358
Akramov Tohir Abdirahmonovich	
MINTAQALAR INVESTITSION SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	364
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
MYCARD MOBIL ILOVASIDA FOYDALANUVCHINING HARAKAT ODATLARI (BEHAVIORAL BIOMETRICS) ASOSIDA NOQONUNIY KIRISH URINISHLARINI ANIQLASH MODELINI ISHLAB CHIQUISH	372
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna	
NAMANGAN VILOYATI TUMANLARIDA INVESTITSIYA RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	384
Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li	

NAMANGAN VILOYATI TUMANLARIDA INVESTITSIYA RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: behzodbekibrohimov00@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Namangan viloyati tumanlarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar asosida baholanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – hududlar kesimida investitsiya resurslarining qaytimi va ulardan foydalanish samaradorligidagi tafovutlarni aniqlash hamda bu farqlarni shakllantiruvchi omillarni ilmiy asoslashdan iborat. Metodologik jihatdan Data Envelopment Analysis (DEA) modeli orqali tumanlarning nisbiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi va keyingi bosqichda ularning determinantlari regressiya tahlili yordamida aniqlanadi. Tadqiqot natijalari investitsiya resurslarining hududiy taqsimlanishida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini va samaradorlik darajasi infratuzilma rivoji, inson kapitali hamda iqtisodiy faollik darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: investitsiya samaradorligi, DEA modeli, hududiy rivojlanish, Namangan viloyati, tumanlar kesimi, investitsiya resurslari, iqtisodiy o'sish, samaradorlik tahlili, ekonometrik model, infratuzilma, inson kapitali, hududiy nomutanosiblik, regressiya tahlili.

Аннотация

В данной статье проводится оценка эффективности использования инвестиционных ресурсов в разрезе районов Наманганской области на основе экономико-статистических и эконометрических подходов. Основной целью исследования является выявление различий в отдаче инвестиционных ресурсов и уровне их эффективности по территориям, а также научное обоснование факторов, формирующих эти различия. С методологической точки зрения относительные показатели эффективности районов рассчитываются с использованием модели Data Envelopment Analysis (DEA), а на следующем этапе их детерминанты определяются с помощью регрессионного анализа. Результаты исследования показывают наличие существенной территориальной диспропорции в распределении инвестиционных ресурсов, а также зависимость уровня эффективности от развития инфраструктуры, человеческого капитала и уровня экономической активности. В статье также разработаны практические рекомендации по совершенствованию региональной инвестиционной политики.

Ключевые слова: эффективность инвестиций, модель DEA, региональное развитие, Наманганская область, районный разрез, инвестиционные ресурсы, экономический рост, анализ эффективности, эконометрическая модель,

инфраструктура, человеческий капитал, территориальные диспропорции, регрессионный анализ.

Abstract

This article evaluates the efficiency of the use of investment resources across the districts of Namangan region using economic-statistical and econometric approaches. The main objective of the study is to identify differences in the returns and efficiency of investment resources across territories and to provide a scientific justification of the factors shaping these disparities. Methodologically, relative efficiency indicators of districts are calculated using the Data Envelopment Analysis (DEA) model, and at the next stage, their determinants are identified through regression analysis. The results of the study reveal significant territorial imbalances in the distribution of investment resources and demonstrate that efficiency levels are directly influenced by infrastructure development, human capital, and the level of economic activity. The article also develops practical recommendations for improving regional investment policy.

Keywords: investment efficiency, DEA model, regional development, Namangan region, district-level analysis, investment resources, economic growth, efficiency analysis, econometric model, infrastructure, human capital, territorial disparities, regression analysis.

KIRISH

Global iqtisodiyotda hududiy rivojlanishning barqarorligi investitsiya resurslarining hajmidan ko'ra, ularning samarali boshqarilishi va optimal taqsimlanishiga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lsa-da, ularning hududiy samaradorligi past bo'lgan sharoitda resurslar "samara bermaydigan kapital"ga aylanish xavfi mavjud. Shu nuqtai nazardan, World Bank tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiya siyosatining samaradorligi hududlar kesimida resurslardan foydalanish sifati bilan bevosita bog'liqligi qayd etilgan [1].

Xalqaro tajribada hududiy investitsiya jarayonlarini boshqarishda samaradorlikka yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvor hisoblanadi. Jumladan, Organisation for Economic Co-operation and Development tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda investitsiya oqimlarining hududiy konsentratsiyasi iqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishi va mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini chuqurlashtirishi mumkinligi ilmiy asoslangan [2]. Shu bilan birga, International Monetary Fund tahlillarida investitsiya samaradorligining pastligi ko'pincha infratuzilma yetishmovchiligi, institutsional zaifliklar va inson kapitalining yetarli rivojlanmaganligi bilan izohlanadi [3].

O'zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanishni jadallashtirish, investitsiya faoliyatini kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Namangan viloyatida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiy faollikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Namangan viloyatining Uychi tumanida 100 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini qurish loyihasi doirasida 110 mln AQSh dollari

miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu hududiy investitsiya siyosatining faol amalga oshirilayotganidan dalolat beradi [4].

Mamlakat miqyosida investitsiya jarayonlarini tizimli boshqarish va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi institutsional mexanizmlar joriy etilmoqda. Xususan, hududiy investitsiya loyihalarini tanlash, moliyalashtirish va monitoring qilish jarayonlarini takomillashtirish orqali investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda [5]. Bu esa investitsiya siyosatini “miqdoriy yondashuv”dan “sifat va samaradorlik yondashuvi”ga o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Namangan viloyati misolida olib borilayotgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududda investitsiya hajmining o‘shishi kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy natijadorligi tumanlar kesimida sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim tumanlarda yuqori hajmdagi investitsiyalar jalb etilgan bo‘lishiga qaramay, ishlab chiqarish hajmi, bandlik va qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlarining pastligi kuzatilmoqda. Bu holat investitsiya resurslarining samarasiz taqsimlanayotganligini va boshqaruv mexanizmlarida tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur sharoitda investitsiya samaradorligini baholashning ilg‘or usullaridan biri bo‘lgan Data Envelopment Analysis (DEA) modeli asosida hududlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu yondashuv investitsiya resurslarining nisbiy samaradorligini baholash, samarasiz hududlarni aniqlash va mavjud ichki rezervlarni ochib berish imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur maqola Namangan viloyati tumanlarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini kompleks baholash, uning determinantlarini aniqlash va hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, mintaqaviy darajada ushbu muammo yanada murakkablashadi, chunki investitsiya resurslari bir xil sharoitda emas, balki turli infratuzilma, bozor va institutsional muhitga ega hududlarda amalga oshiriladi. Shu sababli, investitsiya samaradorligini baholashda oddiy ko‘rsatkichlar emas, balki kompleks metodologik yondashuvlar talab etiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu yo‘nalish asosan ishlab chiqarish samaradorligi nazariyasi, iqtisodiy o‘shish modellari va zamonaviy ekonometrik metodlar kesishmasida shakllangan.

Investitsiya samaradorligini baholashning nazariy asoslari Farrell tomonidan ishlab chiqilgan samaradorlik konsepsiyasiga borib taqaladi. U ishlab chiqarish samaradorligini texnik va taqsimot samaradorligiga ajratgan holda, resurslardan foydalanish darajasini optimal chegaraga nisbatan baholash g‘oyasini ilgari surgan [6]. Ushbu yondashuv investitsiya resurslarining samaradorligini baholash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Farrell modeli shuni ko‘rsatadiki, samaradorlik faqat natija hajmi bilan emas, balki resurslardan foydalanish sifati bilan belgilanadi. Bu esa investitsiya hajmi yuqori bo‘lgan hududlarda ham past samaradorlik kuzatilishi mumkinligini tushuntiradi.

Mazkur nazariy asos keyinchalik Charnes, Cooper, Rhodes tomonidan rivojlantirilib, Data Envelopment Analysis (DEA) modeli shakllantirilgan [7]. DEA modeli ko'p kirish (input) va chiqish (output) ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida hisobga olib, qaror qabul qiluvchi birliklarning (DMU) nisbiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu modelning asosiy afzalligi shundaki, u parametrik shaklga ega emas va funksional bog'liqlikni oldindan belgilashni talab qilmaydi. Natijada, real iqtisodiy sharoitlarda investitsiya samaradorligini yanada moslashuvchan va aniq baholash imkoniyati yaratiladi.

DEA metodologiyasining muhim rivojlanish bosqichi Banker, Charnes, Cooper tomonidan taklif etilgan o'zgaruvchan miqyosga ega model (BCC modeli) hisoblanadi [8]. Ushbu model ishlab chiqarish hajmining miqyos effektlarini hisobga oladi va ayniqsa hududlar kesimida samaradorlikni baholashda muhim ahamiyatga ega. Chunki amaliyotda barcha tumanlar bir xil iqtisodiy sharoitga ega emas va resurslardan foydalanish imkoniyatlari turlicha. Shu bois, BCC modeli yordamida texnik samaradorlik va miqyos samaradorligini alohida ajratish imkoniyati mavjud bo'lib, bu investitsiya siyosatini yanada aniqroq shakllantirishga xizmat qiladi.

DEA natijalarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida Coelli tomonidan taklif etilgan ikki bosqichli yondashuv keng qo'llanilmoqda [9]. Ushbu yondashuvda birinchi bosqichda DEA orqali samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa ularning determinantlari ekonometrik modellar yordamida baholanadi. Bu yondashuv investitsiya samaradorligining sabablarini aniqlash imkonini beradi va natijalarni siyosiy qarorlar qabul qilishda qo'llashni osonlashtiradi. Aynan shu yondashuv zamonaviy empirik tadqiqotlarda eng keng tarqalgan metod hisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda investitsiya samaradorligini tushuntirishda fazoviy yondashuvlar ham muhim o'rin tutadi. Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasiga ko'ra, investitsiyalarning hududiy konsentratsiyasi aglomeratsiya effektlarini yuzaga keltiradi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi [10]. Biroq ushbu jarayon bir vaqtning o'zida hududlararo nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Demak, investitsiya samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy natijalarni emas, balki hududiy taqsimlanish omillarini ham hisobga olish zarur.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi doirasida Barro va Sala-i-Martin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik hududlar kesimida bir xil emasligi aniqlangan [11]. Bu esa investitsiya samaradorligi hududiy xususiyatlarga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Ayrim hududlarda investitsiyalar yuqori iqtisodiy qaytim berayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda esa ularning samaradorligi past bo'lishi mumkin.

Investitsiya samaradorligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri inson kapitali hisoblanadi. Mankiw va Romer tadqiqotlarida inson kapitalining rivojlanishi investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilgan [12]. Shu bilan birga, infratuzilma rivoji ham investitsiya samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Aschauer tomonidan olib borilgan empirik

tadqiqotlar infratuzilma rivojining ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [13].

DEA metodologiyasining statistik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan tadqiqotlar ham rivojlanmoqda. Xususan, Simar va Wilson tomonidan ishlab chiqilgan bootstrap DEA yondashuvi samaradorlik baholarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi [14]. Bu usul DEA natijalarining statistik xatolarga sezgirlikini kamaytiradi va ularning ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi.

Afonso va Aubyn tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat investitsiyalarining samaradorligi DEA modeli asosida baholanib, investitsiya samaradorligi mamlakatlar kesimida sezilarli darajada farqlanishi aniqlangan [15]. Ushbu tadqiqotda samaradorlik darajasi asosan institutsional sifat, davlat boshqaruvi va inson kapitali bilan bog'liqligi empirik ravishda isbotlangan. Ayniqsa, resurslar hajmi yuqori bo'lgan davlatlarda ham samaradorlik past bo'lishi mumkinligi qayd etilib, bu investitsiya boshqaruvining sifati hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiya samaradorligini baholash ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab etadi. DEA modeli ushbu yo'nalishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi, biroq uning natijalarini to'liq talqin qilish uchun ekonometrik tahlil, fazoviy yondashuv va institutsional omillarni integratsiya qilish zarur. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda hududiy darajada mikro ma'lumotlarning yetishmasligi va samaradorlikni baholashda yagona metodologiyaning yo'qligi asosiy ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Namangan viloyati tumanlarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun no-parametrik iqtisodiy usul — Data Envelopment Analysis (DEA) modeli qo'llanildi. Tadqiqot dizayni ikki bosqichli yondashuvga asoslangan bo'lib, birinchi bosqichda har bir tuman qaror qabul qiluvchi birlik (DMU) sifatida qaralib, ularning nisbiy texnik samaradorligi aniqlanadi. DEA modelining CCR (doimiy qaytim) va BCC (o'zgaruvchan qaytim) modifikatsiyalari qo'llanib, mos ravishda umumiy texnik samaradorlik (overall technical efficiency) hamda sof texnik samaradorlik (pure technical efficiency) baholanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida DEA orqali olingan samaradorlik ko'rsatkichlarining determinantlarini aniqlash maqsadida ekonometrik tahlil amalga oshiriladi. Bunda samaradorlik indeksleri bog'liq o'zgaruvchi sifatida olinib, ularning infratuzilma rivoji, inson kapitali, aholi zichligi va iqtisodiy faollik kabi omillarga bog'liqligi Tobit modeli yoki fraksion regressiya orqali baholanadi. Shuningdek, natijalarning ishonchliligini oshirish maqsadida Simar–Wilson bootstrap yondashuvi qo'llanib, baholash xatoliklari va statistik og'ishlar minimallashtiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda Namangan viloyati tumanlarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi kompleks statistik va ekonometrik yondashuvlar asosida baholanadi. Tahlil 2016–2025 yillar oralig'idagi 10 yillik ma'lumotlarni qamrab olib,

birinchi jadvalda hududlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi aks ettiriladi. Ikkinchi jadvalda Data Envelopment Analysis (DEA) modeli asosida hisoblangan samaradorlik indeksleri (CCR – umumiy texnik samaradorlik, BCC – sof texnik samaradorlik va miqyos samaradorligi) keltiriladi. Uchinchisi esa investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida qurilgan ekonometrik model (Tobit regressiya) natijalarini ifodalaydi. Hisob-kitoblarda DEA modelining input-oriented yondashuvi qo‘llanilib, samaradorlik chegarasi asosida har bir tuman uchun nisbiy samaradorlik darajalari aniqlanadi, so‘ngra ularning determinantlari regressiya tenglamalari orqali baholanadi.

Tahlil uchun foydalanilgan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika organlari hamda hududiy investitsiya dasturlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, ular viloyat va tumanlar kesimida investitsiya hajmi, iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari va demografik omillarni qamrab oladi. Tanlangan davr mobaynida hududlar kesimida investitsiya faolligi, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va resurslardan foydalanish darajasida sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Ushbu bo‘limda keltirilgan jadvallar va hisob-kitoblar aynan shu tafovutlarni aniqlash, ularning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda investitsiya samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

1-jadval.

Namangan viloyati va tumanlari kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd.so‘m)¹

Hudud/yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Mingbuloq	70,2	139,9	321,0	275,2	295,6	354,0	454,8	473,1	1123,9	1943,4
Kosonsoy	117,1	209,3	392,0	968,5	564,4	508,4	551,2	719,7	1665,2	2633,9
Namangan	218,9	292,6	458,4	609,1	1075,1	1136,4	1633,7	1481,4	2552,6	3031,0
Norin	88,2	100,8	129,5	297,6	383,9	361,4	470,1	451,1	1385,5	2182,3
Pop	764,3	534,4	338,4	600,4	788,3	1089,2	947,2	1675,9	7248,2	9701,1
To‘raqo‘rg‘on	155,5	629,5	3638,4	3594,5	1203,8	1030,8	1575,1	1984,8	3598,3	6271,2
Uychi	109,5	126,0	169,9	565,5	546,6	387,5	340,9	798,3	1902,3	3527,0
Uchqo‘rg‘on	456,9	227,3	488,4	476,3	782,0	473,5	565,9	696,9	1802,4	1972,8
Chortoq	95,3	124,3	177,0	250,8	388,3	608,9	626,0	1357,6	1995,1	2210,8
Chust	117,5	142,2	215,4	428,5	1042,8	1156,9	1362,5	2181,3	4230,6	4604,4
Yangiqo‘rg‘on	100,8	120,2	142,4	443,0	496,3	502,0	703,4	724,0	2060,5	3267,3
Namangan sh.	518,7	931,5	1667,4	3531,1	4440,0	5372,8	5544,3	6676,0	24666,8	19780,2
Namangan viloyati	2824,5	3586,7	8158,1	12084,9	12007,2	12982,0	14775,1	19220,1	54231,4	61125,3

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2016–2025 yillar davomida Namangan viloyatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2824,5 mlrd so‘mdan 61125,3 mlrd so‘mga yetib, 21,6 barobar o‘shish qayd etilgan. Ayniqsa, 2023–2025 yillar oralig‘ida keskin sakrash kuzatilib, investitsiyalar hajmi 19220,1 mlrd so‘mdan 61125,3 mlrd so‘mga oshgan (3,18 barobar). Hududlar kesimida esa sezilarli differensiallashuv mavjud: 2025-yilda Namangan shahri 19780,2 mlrd so‘m investitsiya jalb etib, umumiy hajmning 32% dan ortig‘ini tashkil qilgan, Pop tumani

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

esa 9701,1 mlrd so‘m bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Aksincha, Mingbuloq (1943,4 mlrd) va Uchqo‘rg‘on (1972,8 mlrd) tumanlarida investitsiya hajmi past darajada qolmoqda. To‘raqo‘rg‘on tumanida 2018-yilda 3638,4 mlrd so‘m va 2019-yilda 3594,5 mlrd so‘m miqdoridagi yuqori ko‘rsatkichlar kuzatilgan bo‘lib, bu yirik investitsiya loyihalari mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, investitsiya oqimlari dinamikasi notekis va ayrim hududlarda keskin o‘zgaruvchan xarakterga ega.

Mazkur holat investitsiya resurslarining hududiy taqsimlanishi samaradorlik nuqtai nazaridan muammoli ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, investitsiyalar hajmining yuqoriligi ularning iqtisodiy qaytimi ham yuqori bo‘lishini anglatmaydi, chunki resurslar asosan iqtisodiy markazlashgan hududlarda to‘planmoqda. Bu esa aglomeratsiya effektlari orqali qisqa muddatda o‘shini rag‘batlantirishi mumkin, biroq uzoq muddatda hududlararo nomutanosiblikni kuchaytiradi. Shuningdek, investitsiya oqimlarining loyihaviy (sakrashli) xarakterga ega ekanligi resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, mazkur natijalar DEA modeli orqali nisbiy samaradorlikni baholash zaruratini asoslaydi, ya’ni qaysi hududlar mavjud investitsiya resurslaridan maksimal darajada foydalanganini aniqlash ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari kesimida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi (DEA indeksi, 2016–2025 yillar o‘rtacha)¹

Hudud	CCR (Umumiy samaradorlik)	BCC (Sof texnik samaradorlik)	Miqyos samaradorligi
Mingbuloq	0.72	0.81	0.89
Kosonsoy	0.78	0.85	0.91
Namangan	0.84	0.90	0.93
Norin	0.76	0.84	0.90
Pop	0.93	0.97	0.96
To‘raqo‘rg‘on	0.89	0.94	0.95
Uychi	0.85	0.91	0.93
Uchqo‘rg‘on	0.82	0.89	0.92
Chortoq	0.80	0.87	0.92
Chust	0.87	0.92	0.94
Yangiqo‘rg‘on	0.79	0.86	0.92
Namangan sh.	0.96	0.99	0.97

2-jadval natijalari Namangan viloyati tumanlarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada hududlar kesimida farqlanishini ko‘rsatadi. Xususan, umumiy texnik samaradorlik (CCR) bo‘yicha eng yuqori natija Namangan shahrida 0.96 darajada qayd etilgan bo‘lib, bu investitsiya resurslaridan foydalanishda deyarli optimal holatga erishilganini bildiradi. Shuningdek, Pop tumani (0.93) va To‘raqo‘rg‘on tumani (0.89) ham yuqori samaradorlik guruhiga kiradi va ular viloyatdagi investitsiya resurslaridan nisbatan samarali foydalanayotgan hududlar sifatida ajralib turadi. Boshqa tomondan, Mingbuloq (0.72), Norin (0.76) va Kosonsoy (0.78) tumanlarida samaradorlik ko‘rsatkichlari past darajada bo‘lib, bu hududlarda mavjud investitsiya resurslarining mos ravishda 28%, 24% va 22% gacha qismi to‘liq

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

samarali ishlatilmayotganini anglatadi. O‘rtacha samaradorlik darajasi taxminan 0.83 atrofida shakllangan bo‘lib, bu viloyat miqyosida ham investitsiya resurslaridan foydalanishda sezilarli ichki zaxiralar mavjudligini ko‘rsatadi. BCC modeli natijalari (0.81–0.99 oralig‘ida) barcha hududlarda CCR ko‘rsatkichlaridan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi, bu esa texnik samaradorlik nisbatan yuqori bo‘lsa-da, umumiy samaradorlikning pasayishiga asosan miqyos omili (scale inefficiency) sabab bo‘layotganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur natijalar investitsiya samaradorligining hududiy iqtisodiy sharoitlar, infratuzilma rivoji va boshqaruv mexanizmlariga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Yuqori samaradorlikka ega hududlar, odatda, sanoat va xizmatlar sektori rivojlangan, transport-logistika infratuzilmasi yaxshi shakllangan hamda bozor markazlariga yaqin joylashgan hududlar hisoblanadi. Aksincha, past samaradorlik kuzatilayotgan tumanlarda investitsiya resurslari hajmi mavjud bo‘lsa-da, ularning optimal kombinatsiyasi, loyihalarning iqtisodiy asoslanganligi va miqyos jihatidan to‘g‘ri joylashtirilishi yetarli emas. Bu esa investitsiya siyosatida “hajmni oshirish” emas, balki “samaradorlikni optimallashtirish” tamoyiliga o‘tish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, miqyos samaradorligining (0.89–0.97 oralig‘ida) nisbatan pastligi ayrim hududlarda investitsiya hajmi ortiqcha yoki yetarli emasligini, ya’ni optimal ishlab chiqarish hajmiga erishilmaganini bildiradi. Shu sababli, hududlar kesimida differensial investitsiya siyosatini ishlab chiqish, infratuzilmani rivojlantirish va resurslarni qayta taqsimlash orqali investitsiya samaradorligini oshirish mumkin. Umuman olganda, DEA natijalari investitsiya boshqaruvi tizimini takomillashtirish uchun muhim analitik asos bo‘lib xizmat qiladi va hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadval.

Namangan viloyati tumanlarida investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar (regressiya natijalari, 2016–2025)¹

O‘zgaruvchi	Koef. (β)	t-stat	p-qiymat
Infratuzilma indeksi	0.41	3.92	0.000
Inson kapitali	0.34	3.15	0.002
Aholi zichligi	0.22	2.36	0.019
Investitsiya hajmi (log)	0.18	2.11	0.036
Bozor yaqinligi	0.16	1.98	0.049
Konstanta	0.29	2.58	0.011

* Tobit regressiya (DEA samaradorlik indeksleri asosida)

** R^2 (pseudo): 0.67

Regressiya natijalari investitsiya samaradorligini shakllantiruvchi omillar ichida infratuzilma hal qiluvchi rol o‘ynashini aniq ko‘rsatadi ($\beta=0.41$; $t=3.92$; $p<0.01$). Bu natija shuni anglatadiki, infratuzilma darajasining 1 birlikka oshishi DEA samaradorlik indeksining o‘rtacha 0.41 punktga oshishiga olib keladi, ya’ni transport, energetika va logistika tizimlari rivojlangan hududlarda investitsiya resurslarining qaytimi yuqori bo‘ladi. Inson kapitali ham yuqori statistik ahamiyatga ega ($\beta=0.34$; $p<0.01$) bo‘lib, bu

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

malakali ishchi kuchi mavjud hududlarda investitsiya samaradorligi tizimli ravishda yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Aholi zichligi ($\beta=0.22$; $p<0.05$) va bozor yaqinligi ($\beta=0.16$; $p<0.1$) omillari ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa aglomeratsiya effektlari va talabga yaqinlik investitsiya natijadorligini oshiruvchi omillar ekanini bildiradi. E'tiborli jihat shundaki, investitsiya hajmi (log shaklda, $\beta=0.18$; $p<0.05$) ijobiy, ammo nisbatan past ta'sirga ega bo'lib, bu investitsiya miqdorining o'zi yetarli emasligini, balki uning sifatli va maqsadli taqsimlanishi muhimligini ko'rsatadi. Modelning tushuntirish darajasi (pseudo $R^2=0.67$) yuqori bo'lib, tanlangan omillar investitsiya samaradorligining asosiy qismini izohlab bera oladi va modelning empirik barqarorligini tasdiqlaydi.

Mazkur natijalar 1- va 2-jadvallarda aniqlangan hududiy tafovutlarning iqtisodiy sabablarini ochib beradi. Xususan, Namangan shahri (CCR=0.96) va Pop tumani (0.93) kabi yuqori samarador hududlarda infratuzilma rivojlanganligi, iqtisodiy faollik yuqoriligi va bozor yaqinligi ustunlik qilmoqda, bu esa regressiya natijalarida aniqlangan omillar bilan to'liq mos keladi. Aksincha, Mingbuloq (0.72) va Norin (0.76) tumanlarida past samaradorlik infratuzilma yetishmovchiligi va inson kapitalining nisbatan past darajasi bilan izohlanadi. Muhim xulosa shundaki, investitsiya hajmi yuqori bo'lgan ayrim hududlarda ham samaradorlik darajasi yuqori emas, bu esa investitsiya siyosatida "hajmga yo'naltirilgan yondashuv"ning cheklanganligini ko'rsatadi. Demak, investitsiya samaradorligini oshirish uchun resurslarni ko'paytirishdan ko'ra, ularni hududiy xususiyatlarga mos ravishda optimal taqsimlash, infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosatni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, model natijalari hududiy iqtisodiy siyosatda differensial yondashuvni joriy etish, ya'ni har bir tumanning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot Namangan viloyati tumanlarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini kompleks baholashga qaratilib, 2016–2025 yillar davomida hududiy investitsiya jarayonlarining dinamikasi, samaradorlik darajasi hamda unga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar investitsiya hajmining keskin o'sishi har doim ham samaradorlikning oshishiga olib kelmasligini, aksincha hududlar kesimida resurslardan foydalanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Shu asosda ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchiidan, 2016–2025 yillar davomida Namangan viloyatida investitsiyalar hajmi 2824,5 mlrd so'mdan 61125,3 mlrd so'mga yetib, 21,6 barobar oshgan bo'lsa-da, DEA natijalari bo'yicha o'rtacha samaradorlik darajasi 0.83 atrofida shakllangan. Bu esa investitsiya resurslarining kamida 17% qismi samarasiz foydalanilayotganini anglatadi. Ayniqsa, Mingbuloq (0.72), Norin (0.76) kabi tumanlarda samaradorlik pastligi hududiy nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli, investitsiya siyosatida faqat hajmni oshirish emas, balki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalish bo'lishi zarur.

Ikkinchidan, regressiya natijalari investitsiya samaradorligining asosiy determinantlari sifatida infratuzilma ($\beta=0.41$), inson kapitali ($\beta=0.34$) va aholi zichligi ($\beta=0.22$) omillarini aniqladi. Bu shuni anglatadiki, infratuzilma rivoji 1 birlikka oshganda samaradorlik indeksi o'rtacha 0.41 punktga oshadi. Shu bilan birga, investitsiya hajmining ta'siri nisbatan past ($\beta=0.18$) bo'lib, bu investitsiya miqdorining o'zi yetarli emasligini, balki uning sifatli va optimal joylashtirilishi muhimligini tasdiqlaydi. Demak, hududiy rivojlanishda "ko'proq investitsiya" emas, balki "samarali investitsiya" modeli ustuvor bo'lishi lozim.

Uchinchidan, tahlillar investitsiya samaradorligi yuqori bo'lgan hududlar (Namangan shahri – 0.96, Pop tumani – 0.93) bilan past samaradorlikka ega hududlar o'rtasida 0.20–0.24 punkt farq mavjudligini ko'rsatdi. Bu farq infratuzilma, bozor yaqinligi va iqtisodiy faollik darajasi bilan izohlanadi. Miqyos samaradorligi ko'rsatkichlari (0.89–0.97 oralig'ida) esa ayrim hududlarda investitsiya hajmi optimal darajada emasligini, ya'ni resurslar ortiqcha yoki yetarli emas taqsimlanganini bildiradi. Shu bois, investitsiya resurslarini hududiy qayta taqsimlash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, investitsiya samaradorligini baholashda Data Envelopment Analysis (DEA) modelini hududiy boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish zarur. Bu orqali har bir tuman kesimida resurslardan foydalanish darajasini muntazam monitoring qilish va nisbiy samaradorlikni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, investitsiya resurslarini taqsimlashda samaradorlik indekslariga asoslangan reyting tizimini joriy etish taklif etiladi, bunda yuqori samaradorlikka ega hududlar rag'batlantiriladi, past samarador hududlar esa qo'shimcha tahlil va qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga jalb etiladi. Bundan tashqari, hududiy rivojlanishda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga emas, balki fazoviy (bozor yaqinligi, logistika imkoniyatlari) va institutsional (boshqaruv sifati, loyihalarni amalga oshirish darajasi) omillarga asoslangan kompleks yondashuvni qo'llash muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsiya samaradorligini baholashda ikki bosqichli (DEA va ekonometrik) modelni standart metod sifatida joriy etish ilmiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi hamda investitsiya siyosatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan esa investitsiya samaradorligini oshirish uchun differensial va maqsadli siyosat yuritish zarur. Xususan, past samaradorlikka ega Mingbuloq, Norin va Kosonsoy tumanlari uchun alohida investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, ularni infratuzilma, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha ixtisoslashtirish talab etiladi. Infratuzilma loyihalariga ustuvor ahamiyat berish orqali investitsiya loyihalarining iqtisodiy qaytimini oshirish mumkin, chunki aynan transport, energetika va logistika tizimlari samaradorlikning asosiy drayverlari hisoblanadi. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish investitsiya resurslaridan foydalanish sifatini sezilarli yaxshilaydi. "Bir tuman – bir ixtisoslashuv" tamoyili asosida investitsiya loyihalarini hududiy optimallashtirish esa resurslarning parchalanishini kamaytirib, ularni aniq

yoʻnalishlarga jamlash imkonini beradi. Nihoyat, investitsiya loyihalarini tanlash, moliyalashtirish va monitoring qilish jarayonlarida samaradorlik mezonlarini majburiy joriy etish orqali har bir loyiha natijadorligini oldindan baholash va risklarni minimallashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. World Bank. (2020). Global Investment Competitiveness Report.
2. OECD. (2021). Regional Development Policy and Investment Strategies.
3. International Monetary Fund. (2019). Public Investment Management Assessment (PIMA). IMF Fiscal Affairs Department.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-fevral PQ-95-son “Namangan viloyatining Uychi va Pop tumanlarida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) boʻlgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6824399>
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabr PF-254-son “Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” Farmoni <https://lex.uz/docs/-7932083>
6. Farrell, M. J. (1957). The Measurement of Productive Efficiency. *Journal of the Royal Statistical Society, Series A*, 120(3), 253–290.
7. Charnes, A., Cooper, W. W., & Rhodes, E. (1978). Measuring the Efficiency of Decision Making Units. *European Journal of Operational Research*, 2(6), 429–444.
8. Banker, R. D., Charnes, A., & Cooper, W. W. (1984). Some Models for Estimating Technical and Scale Inefficiencies in Data Envelopment Analysis. *Management Science*, 30(9), 1078–1092.
9. Coelli, T. J. (1996). A Guide to DEAP Version 2.1: A Data Envelopment Analysis (Computer) Program. Centre for Efficiency and Productivity Analysis, University of New England.
10. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. MIT Press, Cambridge.
11. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (1995). *Economic Growth*. McGraw-Hill, New York.
12. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A Contribution to the Empirics of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*, 107(2), 407–437.
13. Aschauer, D. A. (1989). Is Public Expenditure Productive? *Journal of Monetary Economics*, 23(2), 177–200.
14. Simar, L., & Wilson, P. W. (2007). Estimation and Inference in Two-Stage, Semi-Parametric Models of Production Processes. *Journal of Econometrics*, 136(1), 31–64.
15. Afonso, A., & Aubyn, M. S. (2006). Cross-country efficiency of secondary education provision: A semi-parametric analysis with non-discretionary inputs. *Economic Modelling*, 23(3), 476–491.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**